

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparati xodimlari o`rtasida
O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti
va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarini
o`rganish soatlari to`g`risida ma`lumot

Tadbir davomida ishtirokchilarga ma`ruzachi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan tantanali ma`ruzasidan kelib chiqadigan vazifalarni Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiyy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari kompleksi bo`yicha amalga oshirish yuzasidan Yo`l xaritasini ijrosini ta`minlash bo`yicha Davlat statistika qo`mitasining chora-tadbirlar rejasi va tizimli o`rganish bo`yicha reja-jadvalga asosan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tizimli o`rganish to`g`risida batafsil ma`lumot berdi.

Ma`ruzachi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ikkinchi bo`lim. inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari bo`limining V, VI, VII-boblarining mazmun-mohiyati yig`ilganlar e`tiboriga yetkazib berildi. V-bobda Umumiy qoidalarga to`xtalib o`tilib, unda 18-20-moddalarni o`ziga qamrab oladi.

VI-bobda Fuqarolik masalalariga to`xtalib o`tilib, unda 21-23-modda-larni o`ziga qamrab oladi.

VII-bob 24-31 moddalardan iborat bo`lib, shaxsiy huquq va erkinliklarga bag`ishlangan.

Shuningdek, "29-modda.Har kim fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o`zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir." degan moddaning mazmuni to`g`risida fikrlar bildirib o`tildi.

Shuningdek, Konstitutsiyani munatazam va davomli o`rganib borishga va bu bo`yicha reja-jadval asosida tashkil etilganligi hamda har oyda bir marta o`tkazilishi to`g`risida axborot berildi.